

**PARLAMENT NAZORATIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
MAJLISINING SENATI HAMDA QONUNCHILIK PALATASINING PARLAMENT
NAZORATI SUBYEKTI SIFATIDAGI VAZIFALARI**

Sultanova Niyozjon Ergashbay qizi

Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada parlament nazoratida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hamda Qonunchilik palatasining parlament nazorati subyekti sifatidagi o'rni va vazifalari xususida atroflicha ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar. *Parlament nazorati, parlament nazorati subyektlari, parlament nazorati obyekti, Senat, Qonunchilik palatasi, parlament nazorati shakllari.*

Parlament nazoratini samarali tashkil qilish hamda ijro hokimiyati organlari tomonidan qonunlarning bajarilishini nazorat qilishda parlament nazorati subyektlarining, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Qonunchilik palatasining o'z faoliyatlarini qonuniy asoslarda olib borishi muhim hisoblanadi.

Parlament nazorati subyektlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;

Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari, komissiyalari;

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari;

Qonunchilik palatasi deputatlari;

Senat a'zolari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

Davlat organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati parlament nazorati obyektidir. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarni, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat parlament nazoratining obyekti bo'lishi mumkin emas.

Parlament nazorati shakllari qatorida qonunchilik palatasi, Senat majlislarida davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish; Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish; Senat majlislarida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish; Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining so'rovi; Qonunchilik palatasi, Senat qo'mitalari tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish; qonun hujjatlarining ijrosi holatini, huquqni qo'llash amaliyotini Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari tomonidan o'rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan ular tomonidan monitoringni

amalga oshirish; Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish; Senat majlislarida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitishning mavjudligini alohida ta'kidlash joiz.

Qonunchilik palatasi, Senat zarur bo'lgan hollarda, o'z majlislarida davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishi mumkin. Davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish to'g'risidagi masala Qonunchilik palatasi tomonidan fraksiyalar, qo'mitalar tashabbusiga ko'ra, Senat tomonidan esa qo'mitalarning tashabbusiga ko'ra ko'rib chiqiladi. Davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish to'g'risida Qonunchilik palatasi, Senat qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasining, Senatning davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish to'g'risidagi qarori oldindan tegishli davlat organiga yuboriladi. Davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha Qonunchilik palatasi, Senat qaror qabul qiladi, unda tegishincha davlat organlari rahbarlarining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo'lishi, shuningdek ularning ishiga baho berilishi mumkin.

Davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha qabul qilingan Qonunchilik palatasi, Senat qarori tegishli davlat organiga yuboriladi. Qonunchilik palatasi, qoida tariqasida, bir oyda bir marta o'z majlisida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitadi. "Hukumat soati"ni o'tkazish jadvali Bosh vazir bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan belgilanadi. Qonunchilik palatasi deputatlarining hukumat a'zolariga savollari Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan "hukumat soati"ni o'tkazishdan kamida o'n kun oldin Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi. Vazirlar Mahkamasi savollar ro'yxatidan kelib chiqqan holda "hukumat soati"da Qonunchilik palatasi deputatlarining savollariga javob beradigan hukumat a'zolarini belgilaydi.

Senat o'z majlisida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitishi mumkin. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish to'g'risidagi masala Senat tomonidan uning qo'mitalari tashabbusiga ko'ra ko'rib chiqiladi. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish to'g'risida Senat qaror qabul qiladi, qaror tegishli hokimlarga oldindan yuboriladi. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining tegishli hududni rivojlantirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish yakunlari bo'yicha Senat qaror qabul qiladi.

Parlament nazorati natijalarini ko'rib chiqish bo'yicha Qonunchilik palatasining, Senatning hamda ular organlarining majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Majlislarga davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Qonunchilik palatasiga parlament nazoratini samarali amalga oshirish uchun yuklatilgan zaruriy vazifalarni lozim darajada

amalga oshirish mavjud qonunlarning to'la –to'kis ijrosini ta'minlashda muhim asoslardan bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Parlament nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-403-son. 11.04.2016
2. Lex.uz